

UO‘T: 504.062.2

ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘INING BIOLOGIK XILMAXILLIGI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Saqiyev Q.B.

Toshkent shahar ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi
mutaxassisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Zomin milliy tabiiy bog'ining biologik xilmaxilligi, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumot keltirilgan. Jumladan milliy tabiat bog'i hududida 20 xil kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simlik turlari, 107 xil yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va ozuqabop turlari, 6 xil yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik turlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Zomin, bioxilmaxillik, pedosfera, landshaft, milliy bog', o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о биоразнообразии, уникальной флоре и фауне Зааминского национального природного парка. В частности, в Национальном парке выявлено 20 видов редких и исчезающих видов дикорастущих растений, 107 видов лекарственных и съедобных дикорастущих растений, 6 видов технических видов дикорастущих растений.

Ключевые слова: Заамин, биоразнообразие, педосфера, ландшафт, национальный сад, флора, фауна.

ABSTRACT

The article provides information on biodiversity, unique flora and fauna of the Zaamin National Natural Park. In particular, 20 species of rare and endangered species of wild plants, 107 species of medicinal and edible wild plants, 6 species of technical species of wild plants have been identified in the National Park.

Keywords: Zaamin, biodiversity, pedosphere, landscape, national garden, flora, fauna.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlash maqsadida bioxilmaxillik va agrobioxilma-xillikni saqlash, undan oqilona foydalanish va samarali boshqaruvini tashkil etish borasida qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu sohada yetakchilik qilib kelayotgan xorijiy

davlatlarda biologik resurslar to'planadigan va ularning saqlanishi ta'minlangan gen banklar tashkil etilgan. Qator davlatlarda biologik va pedosfera xilma-xilligini asrash, ulardan teng xuquqli foydalanish va tuproq qatlami unumdorligini oshirish borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [1].

Tabiatni muhofaza qilish – landshaftlarning bir butunligini, tabiiy komponentlarni o'simlik, hayvon, suv, havo va tabiiy yodgorlik hamda resurslarning o'zaro muvozanatini muhofaza qilishga qaratilgan. Landshaftlarni muhofaza qilishning shakllari juda ko'p. Bular: qo'riqxonalar, buyurtmalar, rezervatlar, milliy bog'lar. Dam olish uchun ajratilgan joylar va hakoza. Hozir yer yuzida tabiatni muhofaza qiladigan ob'ektlarning soni 20 mingdan ortiqdir [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global ma'noda biologik xilmaxillik insoniyat uchun katta ekologik, genetik, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy, madaniy, rekreasion va estetik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha rivojlanayotgan qismi va butun insoniyat bizning sog'lig'imiz, faravonligimiz va jamiyatimizning kelajagi biologik xilmaxillikning nozik va mo'rt tarmog'ini saqlashga bog'liqligini tushunadi.

O'zbekistonning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari mamlakatimizda bioxilmaxillikni asrashning o'zagi hisoblanadi. Shu sababli hozirgi davrda "Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda mavjud bioxilmaxillikni asrash" mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Asosiy tahdidlardan biri qishloq xo'jaligining rivojlanishi, aniqroq aytganda, qishloq xo'jaligi uchun yangi hududlarning o'zlashtirilishidir [3].

Zomin milliy tabiat bog'i – Turkiston tog' tizmasining shimoliy yon bag'rida, dengiz satxidan 1200 metrdan 4033 metrgacha balandlikda joylashgan, 1976 yilda milliy bog'ni tashkil qilish va loyihasini tuzish bo'yicha asosiy sxema tashkil qilingan. Ajratilgan maydon milliy bog' tashkil qilish uchun to'liq javob beradi. Milliy bog' tashkil qilingan vaqtda umumiy maydon 24110 ga bo'lib, hozirgi vaqtda 23894 ga teng.

Milliy bog'ning shimoliy chegarasi Molguzar tog' tizmasining janubiy-sharqiy qismidan boshlanib Chortangi darasigacha davom etadi, so'ngra janubdan shimolga tomon qayrilib Yettikechuvsoy bo'ylab Duoba qishlog'igacha davom etadi.

Sharqda Usmonlisoy, O'riklisoy, Sharilloqsoy va kattanihabar orqali Tojikiston Respublikasi bilan chegaralanadi.

G'arbiy tomondan Qashqasuv va Qizilmozorsoy suv havzalari o'rtalig'i orqali Zomin tog' o'rmon qo'riqxonasi bilan chegaralangan.

Milliy bogʻ hududi orqali Zomin va Baxmal tumanlarini bogʻlaydigan avtomagistral oʻtgan. Bu magistral asosan Oʻrikli soy va Sharilloqsoy orqali oʻtib, Supa dovoni hamda Chortangi darasi orqali Koʻlsoy bilan tutashib ketadi. Trassa orqali Qashqasuv posyolkasidan oʻtib Qumbel dovoni orqali Tojikiston bilan tutashadi.

Milliy bogʻ hududida bir qancha aholi punktlari mavjud boʻlib, ulardan eng yiriklari Yettikechuvsoy, Oʻrikli, Togʻterak. Milliy bogʻ markazidan Zomin va Baxmal tumanlari markazlarigacha 50 km. Dashtobodagi temiryoʻl stansiyasigacha 70 km, Jizzax shaxrigacha 110 km, Samarqandgacha 310 km tashkil etadi.

Milliy Bogʻning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

-tabiiy landshaftlarni saqlab qolish va himoya ostiga olish, asosan katta maydondagi archali oʻrmonlarini saqlab qolish, alohida ahamiyatga ega boʻlgan Qirqqiz darasini saqlab qolish, shuningdek noyob oʻsimlik turlarini hamda barcha hayvon turlarini saqlab qolish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borish.

Milliy bogʻ hududida ekoturizmni tashkil etish va tashrif buyuruvchilarni milliy bogʻning tabiati va alohida ahamiyatli joylari bilan tanishtirish.

Asosiy amaliy ishlar quyidagilar hisoblanadi:

Milliy bogʻ hududini koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirish.

Zomin milliy bogʻi hududi regionning tabiiy majmualari va jarayonlarining davlat andozasi hisoblanib, ushbu hudud tabiiy obʼektlarda kechayotgan jarayonlar asosini mukammal tadqiq va tahlil qilish va tabiatdan oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish hamda tadqiqotlar natijalari boʻyicha tavsiyalar beradi. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuniga binoan Zomin milliy tabiat bogʻi hududidagi yerlar, suv havzalari, yer osti zaxiralari, oʻsimlik va hayvonot dunyosi unga doimiy foydalanish uchun berilgan.

Bugungi kunda milliy bogʻda oʻsimliklarning 800 dan ortiq, sutemizuvchilarning 30 turi, sudralib yuruvchilarning 14 ta, qushlarning 102 ta turi mavjud boʻlib, shundan 4 ta tur hayvonlar, 6 ta tur qushlar, oʻsimliklardan 3 ta tur “Qizil kitob”ga kiritilgan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ga kiritilgan sutemizuvchi hayvonlardan 4 tur Tyanshan qoʻngʻir ayigʻi, Turkiston silovsini, qor qoplari va togʻ arxari, parrandalardan esa 6 turi kiritilgan. Jumladan lochinsimonlardan Itogʻli – *Falco cherrug*, Gray, Lochin – *Falco peregrinus* T, Mallabosh lochin – *Falco pelegrinoides*, Boltayutar – *Gypaetus barbatus* L, Qora tasqara – *Aegypius monaxus* L, Burgut – *Aquila chrysaetus* L, Qumoy – *Gyps himalayensis* Hume va boshqalar shular jumlasidandir [4].

Milliy tabiat bog‘i hududida 20 xil kamyob va yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan yovvoyi holda o‘sovchi o‘simlik turlari, 107 xil yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning dorivor va ozuqabop turlari, 6 xil yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning texnik turlari aniqlangan. Jumladan Pufak astragal – *Astragalus leptophysus* Vved, Belolipov astragali – *Astragalus belolipovii* Kamelin ex F.O.Khass, Sumbul kovrak – *Ferulla sunbul* (Kauffm) Hook. f., Fedchenko kovraki – *Ferula fedtschenkoana* Koso-Pol, Korolkov lolasi – *Tulipa korolkovii* Rgl, Isoqul piyozi – *Allium isakulii* R.M. Fritsch et Khass, G‘alati uchqat – *Lonicera paradoxa* Pojark kabi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan endemik turlar Zomin milliy tabiat bog‘ining ko‘rki bo‘lib, bu o‘simliklar himoyaga muhtoj turlar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Zomin milliy tabiat bog‘ining o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ularni kelajak avlod uchun asrab avaylash bugungi kunning muhim masalalardan biri sanaladi.

REFERENCES

1. Turabayev A.N. Globallashuv sharoitida biologik resurslarni asrash, samarali foydalanish va boshqarishni tashkil etishning ekologik asoslari Biol. fanlari dok.dis... avtoreferati. –Toshkent, 2019. 4-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiya va harakat rejasi. -Toshkent, 1998. -140 b.
3. Ruziyev I.D., Safaev M.A., Kamilov Sh.E., Alijanov S.D., Salimov N.R., Urinova A.A., To‘laev J.A. Biologik xilmaxillikni saqlash muammolarini va biologik xavfsizlikning ilmiy asoslarini o‘rganish // Monografiya. – Toshkent. “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021 y. 9-35 betlar.
4. O‘simlik dunyosi ob’ektlarini hisobga olish va boshqa ma’lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish kitobi // Zomin, 2020 yil.